

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

SAVDO

RAQAMLI

MARKETING

BIZNES

TADQIQOT

BRENDING

№4-SON


2025-YIL, APREL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN



ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otobek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	9
Otajanov Umid Ablullayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	21
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA "IQTISODIYOT" YO'NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	32
Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	44
Xodjayev Anvar Rasulovich	
RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	56
Saidov Mash'al Samadovich, Soliyev Rahmatjon	
ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА	63
Голышева Е.В. , Мурадова Л.Т.	
MINTAQADA MEHNAT RESURLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	78
Kurbanov Feruz Pirnazarovich	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	87
Turopov Maqsudjon Asatillo o'g'li	
KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	97
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	104
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
KO'SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	127
Raximov Ilyos Ikramovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	137
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	147
Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	157
Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH	164
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li	
ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ.....	171
Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли	
О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA‘SIRI.....	178
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA‘SIRINI BAHOLASH	184
Tursunova Dilnavoz Davron qizi	
О‘ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	193
Xotamov Ibodullo Sadulloyevich	
SUN‘IY INTELLEKTNII ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI	204
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQARISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	210
Raximov Furqat Jalalovich	
UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH	224
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”).....	232
Мусаева Шоира Азимовна	
SANOATDA ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	242
Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich	
QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI	250
Otaxonova Odinaxon Inomovna	
SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	260
Muratova Shohista Nimatullayevna	

MINTAQAVIY OZIYQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	270
Mirtoev Axrorbek Abdulpattovovich	
MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUV LAR.....	278
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li	
AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO'RSATISH STRATEGIYASI.....	285
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	293
Donayeva Feruza Burxon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI.....	302
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
MINTAQADA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	308
Sapaev Maxsudbek Karimovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIQ XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUV LARI	315
Elbaeva Muqaddas Rashidovna	
BANK AKTIV LARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	321
Absamatov Anvar Ergashevich	
LOGISTIKADA OMBORXONA XO'JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	329
Boymatov O'tkirbek Tilovmurod o'g'li	
MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	336
Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI	352
Mutalova Malika Saydullayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUV LAR	359
Norboyev Sarvar Azodovich	
MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	365
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH.....	375
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	384
Tashnazarov Sur’atjon Abdullayevich	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY.....	389
Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich	
O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI	398
Xalimova Fayyoz Nafasovna	
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI.....	405
Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	
KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	426
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI.....	435
Madraximov Umirbek Muxammadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	443
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich	
SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	451
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	461
Sultonova Xilola Jamolutdinovna	
MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	468
Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi	
MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	476
Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi	
REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI	488
Safarov Alisher Yunusaliyevich	

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR.....	500
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li	
KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.....	514
Burxanov Aktam Usmanovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	522
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	530
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	537
Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich	
TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	545
Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	555
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	567
Xolmuratov Xolilla Sariyevich	
LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI.....	586
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ	603
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	612
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	617
Rajabov Qurbon Sulaymonovich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	626
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	635
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	

MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	644
Jo'rayev Shermat Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	651
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQUARISHNI TASHKIL ETISH	661
Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH....	671
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI	679
Umirov Abdisalom To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	686
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	694
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI	702
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzбек Sardor o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI	709
Ismailov Allayor Rashidovich	

MINTAQADA TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH

Sapaev Maxsudbek Karimovich

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: maxsudbek.sapayev@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqalarda tabiiy resurslardan foydalanishning mintaqqa iqtisodiy-ekologik rivojlanishiga ta'siri nazariy manbalarga tayangan holda tadqiq etilgan. Mintaqalarda tabiiy resurslarning turlari, ulardan foydalanish xususiyatlari, tabiiy resurslarning mintaqani rivojlantirishdagi o'rni hamda resurslardan oqilona foydalanishning uslubiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, mintaqalarda tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash borasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaq, tabiiy resurslar, moddiy va madaniy ehtiyojlar, hududiy iqtisodiy kompleks, iqtisodiy resurslar, demografik resurslar, iqlim resurslari.

Аннотация

В статье на основе теоретических источников рассматривается влияние использования природных ресурсов в регионах на региональное экономическое и экологическое развитие. Освещены виды природных ресурсов региона, особенности их использования, роль природных ресурсов в развитии региона, методические аспекты рационального использования ресурсов. Разработаны также рекомендации по улучшению использования природных ресурсов региона.

Ключевые слова: регион, природные ресурсы, материальные и культурные потребности, региональный хозяйственный комплекс, экономические ресурсы, демографические ресурсы, климатические ресурсы.

Abstract

This article studies the impact of the use of natural resources in the regions on the economic and ecological development of the region based on theoretical sources. The types of natural resources in the region, the features of their use, the role of natural resources in the development of the region, and the methodological aspects of the rational use of resources are covered. Recommendations are also developed to improve the use of natural resources in the region.

Keywords: region, natural resources, material and cultural needs, regional economic complex, economic resources, demographic resources, climatic resources.

KIRISH

Iqtisodiyotning global o'zgarishlari zahirida har bir mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan biri — mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanish hisoblanadi. Shu bois, mamlakat miqyosida tabiiy resurslardan samarali foydalanish borasidagi tadqiqotlar doimiy muammo sifatida ilmiy izlanishlarda keng muhokama qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining.2023-yil 11-sentyabr PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi¹ Farmoniga ko‘ra, mintaqalarda turli ustuvor yo‘nalishlar, ayniqsa ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, transport-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish borasidagi yaqin hamkorlikni kuchaytirish kabi vazifalar belgilab berilgan [1].

Har bir mintaqaning iqtisodiy va ekologik jihatdan rivojlanishi tabiiy resurslar salohiyatiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, hududlarda iqtisodiy va ekologik resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish va ta’sir etuvchi omillarni baholash muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaning iqtisodiy va ekologik jihatdan rivojlanishida tabiiy resurslarning ahamiyati va ulardan foydalanishni takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, V.D. Shornikov tomonidan “tabiiy resurs” tushunchasiga aniq ta’rif berilgan bo‘lib, tabiiy resurs — bu tabiatning bir qismi, o‘rmonning muayyan bo‘lagi, ammo uni iste’mol nuqtai nazaridan foydali deb hisoblash mumkin. Tabiiy resurslar tarkibiga yoqilg‘i-mineral xomashyo turlari ham kiradi. Yoqilg‘i resurslarining “katta uchligi” — neft, tabiiy gaz va ko‘mir — dunyoda ishlab chiqarilayotgan energiyaning 80 % dan ortig‘ini ta’minlaydi [2].

Tadqiqotchilar V. Gorbanev va I. Mitrafanova ham o‘z tadqiqotlarida tabiiy resurslar masalasiga alohida ilmiy yondashuvni qo‘llagan. Ularning fikricha, “tabiiy resurslar — bu jamiyatning moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan tabiiy muhitning tarkibiy qismlaridir”. Ular mohiyatan jismoniy ko‘rinishga ega bo‘lib, ulardan foydalanish orqali iqtisodiy resursga aylanadi [3].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda mintaqalarda tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy-ekologik rivojlanishga ta’sirini baholash maqsadida sohada izlanishlar olib borgan olimlarning nazariy va uslubiy yondashuvlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tabiiy resurslardan foydalanishga oid nazariy qarashlar o‘rganilgan. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar va maqolalar asosida mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tabiat in’om etgan tabiiy resurslar asrlar davomida insoniyatning tabiiy va moddiy ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Shu sababli, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ularni ishlab chiqarishga to‘g‘ri yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

E.V. Alexin ham o‘z tadqiqotlarida tabiiy resurslardan foydalanishni mintaqaviy darajada o‘rganib chiqqan. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, mintaqaviy xo‘jalik majmui — bu chambarchas ichki xo‘jalik aloqalari bilan bog‘langan korxona va tarmoqlarning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining.2023-yil 11-sentyabr PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

maqsadli shakllangan, barqaror birikmasidir. Iqtisodiy kompleksning muvaffaqiyatli ishlashi va rivojlanishi mintaqaviy xususiyatlarni, asosiy ishlab chiqarish kuchlarini butun mintaq miqyosida rivojlantirishni belgilovchi omillarni maksimal darajada hisobga olishga bog‘liq. U bu omillarni uchta guruhga ajratgan:

1. Tabiiy resurslar — tabiiy resurslarning mavjudligi, ularning miqdori, assortimenti, iqlimi, ekologik holati;
2. Iqtisodiy resurslar — iqtisodiy va geografik joylashuv, rivojlangan hududlarga nisbatan joyi, transport yo‘nalishlari;
3. Demografik resurslar — aholi soni, hududiy taqsimoti, yosh tarkibi, mehnatga layoqatli aholining soni va tarkibi, ularning malaka darajasi [4].

Mintaqaviy jihatdan tabiiy resurslar o‘ziga xos tarzda tugaydigan va tugamaydigan resurslarga bo‘linadi. Tugaydigan resurslar esa o‘z navbatida qayta tiklanadigan (yer resurslari) va qayta tiklanmaydigan (suv va biologik) resurslarga ajratiladi. Tugamaydigan resurslar esa iqlimiy, quyosh va shamol energiyasi kabi resurslarni o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, har bir mintaqaning o‘zida mavjud resurslardan oqilona foydalanishi hamda resurslar taqchilligini oldini olish muhim ahamiyatga ega (1-jadval).

1-jadval


Tabiiy resurslarning klassifikatsiyalashuvi¹

Tabiiy resurslar	Tugaydigan resurslar	<i>Qayta tiklanadigan</i>	Yer resurslari
		<i>Qayta tiklanmaydigan</i>	Suv resurslari
			Biologik resurslar
	Tugamaydigan resurslar	Iqlimiy resurslar	
		Quyosh energiyasi resurslari	
		Shamol energiyasi resurslari	

Shuningdek, MDH olimlaridan G.G. Fetisov va V.P. Oreshinlar ham mintaqalarda mavjud tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida ta’kidlab o‘tgan. Ularning fikriga ko‘ra, tabiiy resurslarning barcha turlari — yer, o‘rmonlar, suv, havo va yer osti boyliklaridan foydalanish hamda ularni iqtisodiy aylanishga jalb qilish zarur. Yer qa’ridagi resurslarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish bevosita foydali qazilma zaxiralarini qidirish, ularni foydalanishga tayyorlash, qazib olish, shuningdek, buzilgan tabiiy aloqalarni qayta tiklash bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ular mintaq iqtisodiyotini ekologik jihatdan rivojlantirish bo‘yicha toifalarga ajratilgan holda xususiyatlarini yoritib bergan (1-rasm).

¹ Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlarni tadqiq qilish asosida tuzilgan.

Rossiyalik olimlar qatorida T.A. Agapova va S.F. Seregina tadqiqotlariga ko'ra, milliy tegishlilikidan qat'i nazar, mamlakat iqtisodiy hududida iqtisodiy manfaat markaziga ega bo'lgan barcha iqtisodiy subyektlar (korxonalar, uy xo'jaliklari) rezident hisoblanadi. Shu sababli, mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishi butun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Albatta, bunda ilm-fan va texnik evolyutsiyaning o'rni muhim ahamiyatga ega (1-rasm) [6].



1-rasm. Mintaqa iqtisodiyotini ekologik rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari [5]

Mintaqani iqtisodiy-ekologik jihatdan rivojlantirish va mintaqaviy darajada resurslardan foydalanish borasida B.B. Berkinov boshchiligida chop etilgan “Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash” nomli o‘quv qo‘llanmada quyidagicha yondashuv bayon etilgan: “Mintaqaviy xo‘jalik — bu butun bir xo‘jalik, iqtisodiy, ishlab chiqarish va ijtimoiy kompleks bo‘lib, u respublika, viloyat, avtonom okrug hududida joylashgan korxona, tashkilot va uyushmalarning bo‘ysunish shaklidan hamda tarmoqlar tarkibidan qat’i nazar shakllanadi”.

Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiyotning maqsadlari yettita asosiy yo‘nalishda keltirib o‘tilgan:

1. O‘zbekiston Respublikasida yagona iqtisodiy hududni yaratish;
2. Mintaqalar iqtisodiy imkoniyatlaridan qat’i nazar, yagona minimal ijtimoiy standart va aholining ijtimoiy himoyasini ta‘minlash;
3. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini tenglashtirish;
4. Mintaqalarni kompleks ekologik muhofaza qilish;
5. Juda muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mintaqalarni ustuvor rivojlantirish;
6. Mintaqalarning tabiiy-iqlim xususiyatlaridan maksimal darajada foydalanish;
7. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishni shakllantirish va kafolatlash [7].

Yuqoridagi iqtisodchi olimlar fikrlariga qo‘shilgan holda ta’kidlash joizki, har bir mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mintaqada mavjud tabiiy resurslar salohiyatini e’tiborga olish, ularni qazib olishdan tortib, qayta ishlashgacha bo‘lgan jarayonda ekologik muvozanatni buzmaslik choralari ko‘rilishi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mintaqada tabiiy resurslardan intensiv foydalanish va boshqa usullar orqali jamiyatning ekotizimga ta’siri oqibatida antropogen yuk ortib boradi, bu esa tabiiy boyliklarning zararlanishiga olib keladi. Inson populyatsiyasining ortishi hamda modda va energiyaning insonlar orqali harakatlanishi natijasida tabiiy ekologik tizimlar almashishi yoki butunlay yo‘q bo‘lib ketishi xavfi kuchayadi [8].

Darhaqiqat, har bir mintaqada tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanmaslik muhim, aks holda bu resurslar taqchilligiga olib keladi yoki keyingi avlod uchun resurs yetishmovchiligi xavfini oshiradi. Shu bois, insoniyat sonining ortib borishi sharoitida asrlar davomida samarasiz foydalanilgan resurslar bugungi kunda o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun, bugungi kunda insoniyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri — iqtisodiy o‘lishni ta‘minlash bilan birga tabiiy resurslardan oqilona va intensiv foydalanishni takomillashtirish hamda ekologik muvozanatni saqlab qolishga intilishdir.

Tabiiy resurslar haqida so‘z borganda, avvalo bir masalani aniq anglab olish lozim: tabiiy resurslar tugab qoladigan va tugamaydigan resurslarga bo‘linadi. Tugab qoladigan resurslar qatoriga yer osti va yer usti boyliklari kiradi. Shu sababli, ulardan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish zarur. Tugamaydigan tabiiy resurslarga asosan quyosh energiyasi, shamol, okean va dengiz suvlari tufayli olinadigan energiya turlari kiradi. O‘z navbatida, tugab qoladigan tabiiy resurslar ikki turga — tiklanishi mumkin bo‘lgan va qayta tiklanmaydigan resurslarga bo‘linadi. Tiklanadigan resurslar

qatoriga o'rmon, suv va tuproq kiradi; ammo ularning qayta tiklanishi uchun ayrim hollarda uzoq vaqt talab etiladi. Ishlab chiqarish o'sib borgan sari tabiiy resurslarning deyarli barcha turlaridan foydalanish darajasi ham ortib bormoqda.

Tabiiy resurslar sifatida mineral xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanish xususiyatlari A.E. Ishmuhamedov, M.R. Raximova va L.A. Ishmuxamedova tomonidan to'rtta guruhga ajratilgan holda tavsiya etilgan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, mamlakatimizda foydalanilayotgan foydali qazilma konlari nafaqat juda katta zaxiralarga ega, balki o'ziga xos xususiyatlari bilan ham ajralib turadi:

Birinchidan, tabiiy va mineral xom ashyo zaxiralari yirik konlarda to'plangan bo'lib, ularni qazib olingan joyning o'zidayoq kompleks qayta ishlash imkoniyati mavjud.

Ikkinchidan, foydali qazilmalarning ko'pgina turlari tarkibida nafaqat asosiy komponentlar, balki katta miqdorda yo'ldosh elementlar ham mavjud.

Uchinchidan, konlarning ko'pchiligida ochiq usulda ishlash mumkin; rudalarni boyitish texnologiyasi nisbatan oddiy bo'lib, bu texnologiya katta miqdorda foydali komponentlar ajratishni hamda jahon bozorida xaridorgir mahsulotlar olishni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, ko'pgina foydali qazilma konlari yaxshi o'zlashtirilgan, aholi zich yashaydigan hududlarda joylashgan. Bu esa qulay transport infratuzilmasiga, shu jumladan, suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvur transporti imkoniyatiga ega [9].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada ekologik resurslardan oqilona foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, ekologik resurslardan foydalanish samaradorligini belgilovchi quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratish zarur:

1. Tabiiy resurslarni muhofaza qilish va qayta tiklash — ekologik resurslardan samarali foydalanishning muhim omillaridan biri bu tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ularni qayta tiklash jarayonlariga e'tibor qaratishdir.

2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari — quyosh, shamol va gidroenergiya kabi muqobil manbalarni joriy qilish va ulardan foydalanish orqali ekologik resurslardan samarali foydalanish darajasini oshirish mumkin.

3. Ekologik ta'lim va axborot berish — aholining ekologik savodxonligini oshirish, ishlab chiqaruvchilar va fuqarolar orasida ekologik madaniyatni shakllantirish hamda doimiy ekologik axborot bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

4. Ekologik monitoring va baholash tizimini takomillashtirish — mintaqalarda ekologik resurslardan foydalanish holatini muntazam ravishda monitoring qilish, foydalanish samaradorligini baholash tizimlarini takomillashtirish zarur.

5. Resurslarni qayta ishlash va qayta foydalanish — ekologik resurslardan maqsadli foydalanish uchun resurslarni qayta ishlash va ulardan takror foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish muhimdir.

6. Xalqaro hamkorlik va barqaror rivojlanish — mintaqalarda ekologik resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida xalqaro tashkilotlar hamda xorijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining.2023-yil 11-sentyabr PF-158-son ““O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi farmoni.
<https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. В.Д.Шорников. О природных объектах, природных ресурсах и праве собственности. Ж// Сибирский юридический вестник. №4(35) 2006. 56-63 стр.
3. В.Горбанев, И.Митрафанова. Природные ресурсы мировой экономики. Ж//Мировое и национальное хозяйство. №2 (29), 2014.
<https://mirec.mgimo.ru/2014/2014-02/prirodnye-resursy-mirovoj-ekonomiki>
4. Э.В.Алехин. Региональная экономика и управление. Учебное пособие. Пенза. 2007. 197 с.
5. Г.Г.Фетисов, В.П.Орешин. Региональная экономика и управление. Учебник. – М.: ИНФРА, 2006. 416 с.
6. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник. -7-е изд.перераб. и доп.-М.: Издательство “Дело и сервис”, 2005. 25-с.
7. В.В.Berkinov, D.S.Ashurova, M.K.Abdullaev. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010-yil. 216 bet.
8. Қ.Н.Абиркулов, А.Абдулқосимов, Ш.Хамидов. Ижтимоий экология. Ўқув қўлланма. – Т.: 2004. 112 бет.
9. А.Э.Ишмухамедов, М.Р.Рахимова, Л.А.Ишмухамедова. Минтақавий иқтисодиёт. Дарслик. – ТДИУ. 2007. 359 бет.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**